


FARG'ONA VILOYATINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-fevral dastlabki ma'lumot)


Farg'ona viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 071,9 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 5,2 % ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 250,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 111,3 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 1 821,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 104,4 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 162,7 mlrd. so'mni (2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan o'sish sur'ati 101,5 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)




2020-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari, Farg'ona, Qo'qon, Marg'ilon shaharlarida, shuningdek, Qo'shtepa, Quva va Uchko'prik tumanlarida qayd etildi.

Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, % da




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi 2019-yil yanvar-fevral oylariga nisbatan 11,3 % ga o'sdi va 250,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 12,1 % ulushiga to'g'ri keladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, 1 821,7 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning fevral oylariga nisbatan 4,4 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 87,9 % ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, % da



Chakana savdo aylanmasida yirik korxonalar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi, (%) da



■ **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari**

■ **Yirik korxonalar**

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qo'shtepa (99,8 %), Farg'ona (99,4%) So'x (99,0) Furqat (97,9 %) tumanlarida yuqori ulushga egaligi ko'rinib turibdi.


Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 12,1 % ni tashkil etib, eng katta ulushi Farg'ona shahar (26,6 %), Qo'qon shahrida (17,8 %) va Bag'dod tumani (9,4 %) da kuzatilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari va yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi

	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	2019- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari (mlrd.so'm)	2019- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
Farg'ona viloyati	250,2	111,3	1 821,7	104,4
shaharlar				
Farg'ona	150,2	121,6	413,96	105,5
Qo'qon	55,2	111,5	254,76	105,2
Quvasoy	2,9	94,7	43,28	102,5
Marg'ilon	9,9	79,0	156,59	110,0

tumanlar				
Oltiariq	3,0	114,1	74,23	103,4
Qo'shtepa	0,3	199,8	118,99	101,4
Bag'dod	6,7	77,5	64,64	105,2
Buvayda	1,7	155,5	67,87	100,1
Beshariq	1,5	115,3	64,17	102,7
Quva	2,9	74,0	95,56	103,8
Uchko'prik	2,7	235,0	74,35	99,3
Rishton	2,2	52,3	48,42	106,3
So'x	0,3	224,7	30,38	104,6
Toshloq	4,3	106,3	48,28	107,0
O'zbekiston	1,9	128,2	55,25	102,0
Farg'ona	0,4	11,7	69,54	107,2
Dang'ara	1,4	116,6	45,49	100,6
Furqat	0,7	139,2	32,14	100,8
Yozyovon	2,0	104,5	63,79	103,8

Hududlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%) da



2020-yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 557,3 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,4 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatimizning barcha hududlarida o'sish ko'rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko'rsatkichlar Farg'ona (1969,8 ming so'm), Qo'qon (1236,5 ming so'm) va Marg'ilon (714,7 ming so'm) shaharlari hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar O'zbekiston (242,7 ming so'm), Toshloq (264,2 ming so'm) va Rishton (254,3 ming so'm) tumanlarida qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich shaharlar va tumanlar kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:


Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so'm	2019- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
Farg'ona viloyati	557,3	103,4
shaharlar		
Farg'ona	1969,8	107,4
Qo'qon	1236,5	104,7
Quvasoy	499,1	100,2
Marg'ilon	714,7	105,9
tumanlar		
Oltiariq	370,0	101,9
Qo'shtepa	636,0	99,6
Bag'dod	336,2	99,8
Buvayda	310,0	99,1
Beshariq	291,7	101,1
Quva	386,5	100,8
Uchko'prik	341,9	99,3
Rishton	254,3	99,9

So'x	399,0	103,2
Toshloq	264,2	104,9
O'zbekiston	242,7	100,9
Farg'ona	333,1	100,2
Dang'ara	274,0	99,2
Furqat	282,1	99,9
Yozyovon	604,3	101,8

Jumladan, 2020-yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,2 % ni tashkil etib, 25,6 mlrd. so'mga yetdi. 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 4,8 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 94,6 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Hududlar kesimida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi hajmi (mlrd. so'm)



2020-yilning shu davriga nisbatan viloyatning barcha hududlarida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasidagi ulushi kuzatilib, nisbatan, Farg'ona (14,0 %), Qo'qon(3,1 %), Marg'ilon (1,9 %) shaharlarida qayd etildi.


FARG'ONA VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2020-yil yanvar-fevral)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 837,1 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 5,4 % ga o'sdi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra 723,8 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 4,7 % ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 86,5 % ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa shahar va tumanlar bilan taqqoslaganda, Marg'ilon, Quvasoy shahar, Qo'shtepa, Buvayda, Beshariq (100,0 %) hamda Dang'ara (99,6 %) ,Uchko'prik (99,4 %) va Oltiariq (97,9 %), tumanlarida yuqori bo'lgan.

Yirik , kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlaridagi ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%) da



■ Yirik korxonalar
■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari




FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar aylanmasining ulushi 13,5 % ni tashkil etdi, yirik korxonalarining aksariyati Bog'dod tumanida (47,4 %), Farg'ona (36,0 %) hamda Qo'qon (16,3 %) shahrlarda kuzatildi.

Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd. so'm)	2019-yilning yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	2019-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan, % da
Farg'ona viloyati	837,1	105,4	113,3	82,6	723,8	104,7
shaharlar						
Farg'ona	247,7	106,2	89,2	78,5	158,5	117,7
Qo'qon	121,5	116,3	19,8	228,5	101,8	96,3
Quvasoy	14,7	101,7	-	-	14,7	101,3
Marg'ilon	120,2	104,2	0,1	6,1	120,2	103,8
tumanlar						
Oltiariq	18,6	105,0	0,4	850,9	18,2	103,1
Qo'shtepa	1,2	100,2	-	-	1,2	100,2
Bag'dod	5,9	102,2	2,8	84,2	3,1	126,4
Buvayda	13,1	102,6	-	-	13,1	102,6
Beshariq	9,8	101,2	-	-	9,8	101,2
Quva	6,9	100,5	-	100,0	6,9	100,5
Uchko'prik	32,5	100,5	0,2	87,2	32,3	100,6
Rishton	4,0	104,5	0,2	203,0	3,8	102,1
So'x	0,5	112,5	-	174,8	0,5	109,8
Toshloq	45,6	100,2	0,3	72,0	45,3	100,5
O'zbekiston	134,8	102,1	0,1	576,0	134,7	102,0
Farg'ona	7,6	106,9	-	0,0	7,6	108,1
Dang'ara	39,5	102,6	0,1	166,8	39,3	102,5
Furqat	5,3	100,5	-	-	5,3	100,5
Yozyovon	7,6	100,7	0,1	125,1	7,5	100,5

**Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining
o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%) da**



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'atlari Furqat tumanida (100,5 %) va Uchko'prik (100,5 %) tumanida qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:73-249-87-18